

**OLMALIQ MA'DANLI HUDUDIDAGI MIS-PORFIR
MA'DANLARINING GEOLOGIK O'RGANILGANLIGI (QIZOTA YOKI
BUGUNGI YOSHLIK-II KONI MISOLIDA)**

B.A. Komilov¹

J.Sh. Rabbimov²

1- QarMII "Geologiya va konchilik ishi"
kafedrası assistenti

2- QarMII "Geologiya va konchilik ishi"
kafedrası assistenti

E-mail: bkomilov199403@gmail.com

E-mail: rabbimov1933@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada Olmaliq hududida joylashgan ma'danli maydonlar va Qizota (Yoshlik-II) konining geologik tuzilishi va mis-porfir ma'danlashuvi xususida fikr-mulohazalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Qizota, Yoshlik-II, mis-porfir, geologik syomka, blok.

Olmaliq hududidagi birinchi geologik o'rganishlar G.D.Romanovskiy (1875) va I.V.Mushketov (1875-1878) boshchiligida olib borilgan. Ushbu hududni rejali va batafsil o'rganishlar 1918 yilda boshlanib, S.F.Mashkonsev tomonidan geologik syomka ishlari o'tkazilgan. S.F.Mashkonsev izlanishlari Qoramozor va Olmaliq tog' kon hududiga qiziqishni kuchaytirib, B.N.Nasledov boshchiligidagi geologik partiya tashkillashtirib, ushbu partiya 1927 yilda uch guruhga bo'lindi. Ushbu vaqt oralig'ida hududdagi barcha nisbatan katta madanli maydonlar geologik o'rganildi.

1936 yilda K.N.Vendlend va 1940-1941 yillarda B.N.Nasledovlar tomonidan 1:50000 miqyosli geologik syomka ishlari olib borilib, ularning ishlari natijasida hududning Markaziy tektonik blokini tashkil qiluvchi yuqori paleozoy effuziv qatlamlarining tabaqalanish sxemasi tuzildi.

1952-55 yillar va 1960-62 yillarda J.N.Kuznetsov va V.A.Arapov (1958, 1964 yillar) esa Olmaliq hududining g'arbiy qismi va undagi Markaziy tektonik blokida

1:25000 miqyosli geologik syomka ishlari olib borildi. 1953-1957 yillarda I.B.Fedorova boshchiligida 1:10000 miqyosdagi geologik syomka va shlix na'munalash, gamma-syomka orqali shu miqyosdagi ishlar olib borildi. Ushbu ishlar natijasida effuziv jinslar batafsil tabaqalanib, asosiy tektonik buzilmalar kuzatilib, bir nechta mis va polimetall madanlashuvlar aniqlandi. Maydonning geologik ochilmalari kechkin kamligi va tanalarning ochilmalari juda sustligi sabaligi ushbu madanlashuvlar faqatgina belgilab ketilib, xaritaga tushirilmagan. Mazkur kuzatuvlar natijasida shlixli na'munalashdagi oltin ko'rsatkichlari aniqlangan bo'lsada, yetarlicha ahamiyat berilmagan.

1965 yilgacha Markaziy blok sanoat miqyosidagi yashirin polimetall madanlashuviga istiqbolli hisoblangan va shunga asoslanib barcha geologik ishlar shu maqsadda olib borilgan edi. 1960 yildan toki 1992 yilgacha ushbu ishlar natijasida (I.B.Fyodorova, G.M.Zamorin, V.F.Viktorov, A.T.Raxubenkov, A.A.Kulakov, M.D.Troyanov, V.B.Toxsirov, V.P.Kolominchenko, YE.D.Molchanov va boshqalar) S2 siyenito-dioritlar va karbonat yotqiziqlarning kontaktidagi skranlashgan zonalarida, karbonat yotqiziqlar va ularni qoplab turuvchi effuzivlar kontaktlarida polimetall ma'danlashuv aniqlandi.

1962-1966 yillarda Markaziy blokda Miskon yirik yer yorig'i bo'ylab o'tilgan №108, 109, 110, 120, 121, 113 kabi burg'ulash quduqlari o'tildi. №110 burg'u qudug'i Qizota soyi bo'yida o'tilib 529-653 m oralig'ida 0.1% dan 0.65% miqdordagi mis ma'danlashuvi aniqlandi. Ushbu aniqlangan mis ma'danlashuvi Churshukov G.S. va boshqalar tomonidan Miskan bo'ylab gorizontal ravishda siljigan Sarichuqi konining bir qismi deya qabul qilishgan. Qolgan №120, 121 va 113 burg'u quduqlari mis ma'danlashuvini kesib o'tmadi. Ushbu burg'u quduqlaridan olingan ma'lumotlar yuqorida keltirilgan xulosani tasdiqlamadi. Keyingi ishlar o'rganish uchun 1974-1977 yillarda Kulchulak GQP tomonidan olib borilib, ularga Kulakov A.A. va Abdurazzakov A.A. tomonidan boshqarildi. Ular tomonidan Qizota maydoni bo'ylab o'tilgan №687, 688, 689 va 690 raqamli burg'u quduqlari o'tilib, ularning chuqurligi 650m dan 908m gacha o'zgargan. №688 raqamli burg'u qudug'i oldingi o'tilgan №110

skvajinasidan 400 metr shimoli-sharqda o'tilib qalinligi 110 metr bo'lgan o'zida miqdoriy ulushi: mis 0.48% (0.3% dan 0.98% gacha) va molibden 0.006% bo'lgan ma'danlashuvni aniqladi. Maydon keyingi bosqichlarda mis-molibden o'rganishga tavsiya etildi.

Maydondagi batafsil qidiruv ishlari 1978-1981 yillarda Akchepin GQP tomonidan olib borildi. Ushbu ishlarning natijasida maydonda S2 kategoriyasi bo'yicha ma'danlar ajratildi.

Sentralniy blokidagi mis-porfir ma'danlashuvi (Qizota yoki bugungi Yoshlik-II) 1962 yilda aniqlandi. Ushbu uchastkadagi qidiruv-baholash ishlari 1978-81 yillarda olib borilib, ushbu ishlar natijasida ma'danlashuvning sanoat miqyosidaligi isbotlandi. Qizota (Yoshlik-II) uchastkasidagi dastlabki razvedka ishlari 1983-88 yillarda olib borilib, batafsil razvedka ishlari 1993-98 yillarda olib borildi (B.A.Dyo, 1999). 1982 yilda 500m dan chuqur satxda Qo'yikavuldi mis-porfir ma'danli maydoni aniqlanib, miqyosi bo'yicha kichik hisoblandi (Meshaninov, 1984). Ushbu aniqlanishlar nisbatan katta miqdordagi metallarga boy obyektlarni aniqlashga takliflarni kelib chiqishiga sabab bo'ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar-

1. Бетехтин А.Г., Голиков А.С. Курс месторождения полезных ископаемых. Издательство «Недра», 1964 г.
2. Дорохин И.В., Богачева Е.Н. и др. Месторождения полезных ископаемых и их разведка. Издательство «Недра», 1969 г.
3. Вахромеев С.А., Антипин В.Н. и др. Краткий курс месторождений полезных ископаемых. Издательство «Высшая школа», 1967 г.
4. Смирнов В.И. Геология полезных ископаемых. Издательство «Недра», 1969 г.
5. Rabbimov, J. (2022). UGLERODLI PO 'LATLARNING KONSTRUKTIV MUSTANKAMLIGINI VA KORROZIYAGA BARDOSHLILIGINI OSHIRISH. *Eurasian Journal of Academic Research*, 2(8), 227-234.

6. Turdiyev, Sh., Komilov, B., Rabbimov, J., & Bo'riyev, S. (2022). Murodtera maydonida izlov-qidiruv ishlarini baholash tamoyillari va iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari. *Eurasian Journal of Academic Research*, 2(11), 246-250.
7. Turdiyev, Sh., Komilov, B., Rabbimov, J., Bo'riyev, S., & Azimov, A. (2022). QIZOTA (YOSHLIK II) MAYDONINING GIDROGEOLOGIK TUZILISHI. *Eurasian Journal of Academic Research*, 2(11), 242-245.
8. Турдиев, Ш. Ш. У., Комилов, Б. А. У., & Раббимов, Ж. Ш. (2022). АНАЛИЗ ТЕКУЩЕГО СОСТОЯНИЯ И ПРОБЛЕМЫ РАЗРАБОТКИ ПОДГАЗОВЫХ НЕФТЯНЫХ ЗАЛЕЖЕЙ. *Universum: технические науки*, (11-3 (104)), 58-62.
9. Shahboz, S., Komilov, B., & Rabbimov, J. (2022). YO 'LDOSH GAZLARNI TOZALASH, SUYUQLIK, GAZNING HARORATI VA YENGIL UGLEVODORODLARNI UTILIZATSIYA QILISHNING ZARURLIGI. *Eurasian Journal of Academic Research*, 2(11), 677-680.
10. Turdiyev, Sh., Komilov, B., Rabbimov, J., & Azimov, A. (2022). QIZOTA (YOSHLIK II) MAYDONINING STRATIGRAFIYASI. *Eurasian Journal of Academic Research*, 2(11), 502-504.
11. Turdiyev, Sh., Komilov, B., Rabbimov, J., & Azimov, A. (2022). Suyultirilgan uglevodorod gazlarini olishning resurslari va manbalari. *Eurasian Journal of Academic Research*, 2(11), 505-509.
12. Shermamat o'g'li, T. S., Asqar o'g'li, K. B., & Karim o'g'li, K. O. (2022). STG (LNG) TABIIY GAZDAN SAMARALI FOYDALANISHNING ASOSIDIR. *Journal of new century innovations*, 10(2), 35-37.
12. Shermamat o'g'li, T. S., Shodmonkulovich, R. J., & Rustamovich, B. A. (2022). SUYULTIRILGAN TABIIY GAZNI ISHLAB CHIQRARISH TEXNOLOGIYASI VA UNI O 'ZBEKISTONDA QO 'LLASHNING IMKONIYATLARI. *Journal of new century innovations*, 10(2), 38-41.
13. Rabbimov, J. S. (2022). QATLAM DAN KELAYOTGAN OQIMNI JADALLASHTIRISH MAQSADIDA QATLAMGA KISLOTALI ERITMA BILAN

ISHLOV BERISH (MURODTEPA MAYDONI MISOLIDA). *Eurasian Journal of Academic Research*, 2(3), 373-378.

14. SHermamat o'g'li T. S. et al. NEFT GAZLARIDAN SUYULTIRILGAN UGLEVODORODLARNI ISHLAB CHIQRISHNI TADQIQOTLASH //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2023. – Т. 16. – №. 4. – С. 67-74.

15. Fozilov, S. F., Fozilov, X. S. O'., Rabbimov, J. Sh., & Rahmatov, A. Q. O' . (2022). Neft moylarining mahalliy tabiiy adsorbentlar asosida tozalash va ulardan mastikalar olish. *Science and Education*, 3(10), 285-288.

16. Rabbimov, J. Sh, and B. A. Komilov. "GAZNI TAYYORLASH QURILMASI." *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ* 30.2 (2023): 137-144.

17. Rabbimov, J. Sh, and B. A. Komilov. "GAZSIMON FRAKSIYALARNI KONDENSATSIYASI." *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ* 30.2 (2023): 128-131.